



O'TKIR ISHEMIK INSULTDAN KEYINGI DEPRESSIV HOLATLARNI ERTA ANIQLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Aliyev Doniyor Soibjon o'g'li
Central Asian Medical University
Anatomiya kafedrası asisstenti, nevropatolog.

Xaydarova Dildora Kadirovna
Toshkent tibbiyot akademiyasi
“Nevrologiya va tibbiy psixologiya”
kafedrası professori, t.f.d.

Annotatsiya:

O'tkir ishemik insult dunyo bo'yicha nogironlikning eng asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Insultdan keyin ko'plab bemorlarda **post-insult depressiya (PID)** rivojlanadi. Ushbu holat bemorning reabilitatsiya jarayoniga, hayot sifatiga va uzoq muddatli prognoziga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli depressiv holatlarni erta aniqlash va samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Post-insult depressiya, reabilitatsiya, transkraniyal neyrosonografiya, erta tashxislash

Kirish. O'tkir ishemik insultdan keyingi depressiya holati aniqlangan bemorlarda depressiya holati kuzatilmagan bemorlarga nisbatan hayot sifati ayniqsa, kognitiv, xissiy, iqtisodiy (Post-insult depressiya tashxisi kechiktirilgan bemorni davolash bemor oilasiga o'rtacha 7.5 mln so'm qo'shimcha xarajat yuklaydi (O'zbekiston Sog'liqni aqlash Vazirligi, 2023)) va ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq muammolar ko'proq kuzatiladi. Shu sababli insultdan keyingi depressiv holatlarni erta tashxislash va davolash-profilaktik yordamni optimallashtirish O'zbekiston va xalqaro ahamiyatdagi tibbiyotning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Post-insult depressiya — bu insultdan keyingi davrda rivojlanadigan ruhiy-emotsional buzilish bo'lib, bemorlarda umidsizlik, apatiya, motivatsiya yetishmovchiligi, tashvish va hayotdan zavqlanmaslik holatlari bilan namoyon



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th May, 2025

bo'ladi. Bu holat insult asoratlari sifatida ko'riladi, ammo mustaqil klinik sindrom sifatida ham o'rganilmoqda. Post insult depressiyaning ertangi diagnostikasi A) Psixometrik baholash: 1. PHQ-9 depressiv holatlarni ertangi belgilarini baholovchi oddiy va samarali test. 2. HAM-D klinik depressiyaning aniqlashda qo'llaniladi. 3. BDI sub'ektiv his-tuyg'ular asosida baholash uchun. B) Neyroinstrumental tekshiruv usullari: 1. *MRT* 2. PET -skanerlash -miya faoliyatidagi metabolik o'zgarishlarni kuzatadi. C) Biomarkerlar orqali diagnostika: 1. Yallig'lanish markerlari IL-6, TNF- α . 2. Gormonlar: Kortizolni stressga bog'liq holatlar uchun D) Sun'iy intellekt yondashuvlari: So'nggi yillarda AI algoritmlari yordamida bemorlarning klinik ma'lumotlarini tahlil qilib, depressiya xavfini prognozlash tizimlari ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, So'ngi yillarda Transkraniyal neyrosonografiyaning post-insult depressiyaning aniqlashdagi o'rni kottaligi o'rganilmoqda. Transkraniyal neyrosonografiya yordamida miyaning **fronto-temporal** va **parietal** hududlaridagi o'zgarishlar ko'rsatiladi, chunki ushbu hududlar ruhiy holat, xususan depressiyaga bevosita ta'sir qiladi. Insultdan keyin, ayniqsa, miya shikastlangan joylarda, bu hududlarida faoliyatning pasayishi yoki qisman yo'qolishi post-insult depressiyaning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. TNS bu o'zgarishlarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi.

Xulosa:

Post insult depressiv holatlarni erta diagnostikasini takomillashtirish va kompleks ravishda olib borish insult bilan xastalangan bemorlarda davolashni tez boshlash imkonini beradi, rehabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi, ikkilamchi ruhiy buzilishlarning oldini oladi, qayta insult va o'lim xavfini kamaytiradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Yang S, Hua P, Shang X, Cui Z, Zhong S, Gong G va boshqalar. Qon tomiridan keyingi depressiya uchun muhim xavf omili: depressiya bilan bog'liq pastki tarmoq. *J Psixiatriya Neurosci.* (2015)40:259–68. doi: 10.1503/jpn.140086 PubMed Abstrakt | CrossRef to'liq matn | Google olimi
2. Li, X. (2022). TNS-based prediction of poststroke depression. *Stroke Research and Treatment.*



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfservices.com

7th May, 2025

-
3. Pascoe MC, Crewther SG, Carey LM, Crewther DP. Inflammation and depression: why poststroke depression may be the norm and not the exception. *Int J Stroke* (2011) 6:128–35. doi: 10.1111/j.1747-4949.2010.00565.x CrossRef Full Text | Google Scholar